

TURKIY TILLARDA ARAB VA FORS-TOJIK TILLARI LEKSIKASINING QO‘LLANILISHI

Shamsudinova Iqbol
Abdurayimova Lobar
Usmonova Muxlisa
TerDU talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14014140>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillarda arab tili hamda fors-tojik tillariga oid leksik birliklarning qo‘llanilishi, xususiyatlari ko‘rsatiladi. Arabcha so‘zlarning o‘zlashtirilishi va sabablari, fors-tojik tillariga xos leksik jihatlar o‘zaro tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, fors-tojik tili, arab tili, o‘zlashgan qatlam, leksika.

USE OF ARABIC AND PERSIAN-TAJIK LANGUAGES IN TURKISH LANGUAGES

Abstract. This article shows the use and characteristics of lexical units related to Arabic and Persian-Tajik languages in Turkic languages. The acquisition of Arabic words and their reasons, lexical aspects specific to Persian-Tajik languages are mutually analyzed.

Key words: Turkic languages, Persian-Tajik language, Arabic language, acquired layer, lexicon.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АРАБСКОГО И ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКОГО ЯЗЫКОВ В ТУРЕЦКИХ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье показано использование и характеристика лексических единиц, относящихся к арабскому и персидско-таджикскому языкам, в тюркских языках. Взаимно анализируются процессы усвоения арабских слов и их причины, лексические аспекты, характерные для персидско-таджикских языков.

Ключевые слова: тюркские языки, персидско-таджикский язык, арабский язык, приобретенный слой, лексика.

Turkiy tillarni bitta til oilasiga birlashtirgan va boshqa til oilalaridan farqlaydigan xususiyat bu, leksik tarkibning bir-biriga yaqin ekanligi va grammatik qurilishning mushtarakligi sanaladi. Tilning lug‘at tarkibi o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam natijasida boyib boradi. Turkiy tillar lug‘at tarkibida boshqa tillarga oid, xususan, arab, fors-tojik, rus, mo‘g‘ul va boshqa tillarning elementlari uchraydi. Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar VIII asrdan boshlanib IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga olib kelgan omillar:

Arablar istilosi, islom dinining keng tarqalishi, arab yozuvining qo‘llanila boshlaganligi, madrasalarda arab tilining o‘qitilishi, turkiy arab tilining tarkib topganligi, olimlarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar. O‘zbek tilidagi arabcha so‘zlar asosan ot va sifat turkumiga tegishli bo‘lib, ularning belgilari quyidagilar:

- 1) ikkita unli yonma-yon keladi. Masalan, doim, shoir, muomala, shijoat, shuur kabi.
- 2) ikkinchi belgisi tutuq belgisi (‘) ishtirok etadi: ma‘no, „qal‘a
- 3) uchinchi belgisi -iy, -viy qo‘shimchalarini olib yasalgan bo‘ladi; asabiy, oilaviy tarzida.

Arab tilining o‘zlashtirilishi barcha turkiy tillarda har xil kechgan va ikki xil tarzda amalga oshirilgan. Ozarbayjon, Eron, Qrim xonliklari, Turkiya, Qozon, Astraxan kabi o‘z yozuvi, yozma adabiyoti mavjud, fan taraqqiy etgan hududlarda yozuv va yozma nutq orqali o‘zlashtirilgan

bo'lsa, yozuviga ega bo'lmagan xalqlar uchun og'zaki nutq shaklidan foydalangan va arab tili o'sha davrda arablar tomonidan istilo qilingan xalqlarning tiliga aylangan.

Hozirgi turkiy tillarda arab tilidan olingan so'zlarni ma'nolariga ko'ra oltita guruhga ajratish mumkin:

Diniy tushunchalarni anglatuvchi atamalar :охирам//акырам; Алла; иман//имон kabi

Ilmiy abstrakt atamalar:дунё//дуйна; гайрам//кайрам; давлам//давлем

Iqtisodiy ishlab chiqarish atamalar:мол//мал; қассоб//қассап; фойда//пайда

Ijtimoiy-siyosiy atamalar: ариза//арзан//арзы;золим//залим//зулум;жамият//жамийат;

Grammatik ma'no ifodalovchi atamalar: ва//ве; асло//асла//хасла; албамма//албемме;

Aniq atamalar: arab.сумбуле – ozarb.сумбул; turk.сумбула; turkman. суммул; boshqa tillarda бошоқ//масак//баш kabi.

Turkiy tillar va fors-tojik tillari o'rtasidagi munosabat qadim davrlardan mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra buning sababi Markaziy va O'rta Osiyo hamda Eron Ozarbayjonida o'zbek, ozarbayjon va fors-tojik xalqlarining birga yashaganligidir. Bu ularning iqtisodiy turmush tarzida, fan, texnika, madaniyat sohalarida ham umumiylik kasb etgan.

O'zbekistonning bir nechta viloyatlarida Termiz, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi kabi hududlarida o'zbek va tojik xalqining birga yashaganligi yoki bundan bir necha asrlar oldin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muqimiy, Muhyi, Sadridin Ayniylar o'rtasida bo'lgan hamkorlik aloqalari va zullisonaynlik kabilar har ikki tilning ham fonetik ham leksik ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Fors-tojikcha so'zlar bir nechta o'ziga xos xususiyatlarga ega va bular:

1) ch, l, g, z kabi undoshlar bilan boshlanadigan so'zlar forscha-tojikcha so'zlar hisoblanadi. Misol: chechak, lola, gavhar, ziynat kabi so'zlar forscha-tojikcha so'zlardir.

2) -xo'r, -noma, -bon, -xon, -shunos, -dor, -boz, -ser qo'shimchalari forscha-tojikcha bo'lib, sharobxo'r, mehribon, xonadon kabilar misol bo'ladi.

Yomg'ir Abdirasulovning "Turkiy tillarning qiyosiy -tarixiy grammatikasi" asarida keltirilishicha fors-tojik olinmalari hamma turkiy tillarda bir xil emas, asosan ozarbayjon, boshqird, qoraqalpoq, qirg'iz, turk, o'zbek, uyg'ur tillarida uchraydi. Masalan, fors-tojikcha "osmon", "бечора", "гул" so'zlari turli turkiy tillarda quyidagi ko'rinishda uchraydi:

qozoq tilida: аспан, гул, бичара

qirg'iz tilida: асман, гул,

turk tilida: асмон, гул

o'zbek tilida: осмон, гул, бечора

uyg'ur tilida: осмон, гул, бичаре va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turkiy tillar tilning turli sathlarida turli xil farqli va o'xshash tomonlariga ega. Ayniqsa, o'xshashlik tomonlari leksik sathda ko'proq ahamiyatlidir. Buning sabablaridan biri qadimgi davrlarda ham turli turkiy elatlarning o'zaro ijtimoiy -siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqada bo'lganligidir. Shular asnosida tilning lug'at tarkibi boyib borgan.

REFERENCES

1. Yo. Abdurasulov "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi". Toshkent, 2009.
2. X.A.Dadaboyev, Z.T. Xolmanova "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi". Toshkent, 2015
3. A.Abdurahmonov "Qadimgi turkiy til". Toshkent, 1984.
4. S.M.Mutallibov "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk". Toshkent, 1959.